



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **12352,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **2,3** % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **1043,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **93,9** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **11308,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **101,0** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1627,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **87,8** %)

Tarkibiy qism, ulushlarda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm




HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **12352.6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **2,3 %** ga oshdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **91,6 %** va yirik korxonalar hissasiga **8,4 %** to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH


Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani **24,1 %** ulush bilan **2 976,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bandixon tumani **0,5 %** ulush bilan **64,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.




YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, **11308.8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **3,1** % ga ko'paydi. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **91.6** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Muzrabot (98,5 %), Uzun (98,3), Qiziriq (97,9 %), Qumqo'rg'on (97,6 %), Boysun (97,2 %), Angor (96,9 %), Sherobod (96,3 %) va Oltinsoy (96,1 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Bandixon (239,0 %) Denov (103,8 %) va Oltinsoy (102,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiyy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	12352,6	102,3	1043,8	93,9	11 308,8	103,1
Termiz shahri	2644,2	101,4	636,8	89,0	2 007,4	106,1
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	519,2	102,1	20,4	101,4	498,8	102,2
Angor	533,0	101,7	16,4	74,3	516,6	103,0
Bandixon	64,2	2,4 m	2,6		61,6	2,3 m
Boysun	510,8	101,2	14,3	54,0	496,5	103,8
Muzrabot	490,0	101,3	7,2	97,6	482,8	101,4
Denov	2976,9	103,8	148,3	192,7	2828,6	101,4
Jarqo'rg'on	638,5	101,2	30,6	81,2	607,9	102,5
Qumqo'rg'on	513,6	101,5	12,2	48,3	501,4	104,3
Qiziriq	506,5	100,3	10,8	49	495,7	102,6
Sariosiyo	497,0	100,6	27,5	92,5	469,5	101,1
Termiz	249,9	100,7	33,8	69,6	216,1	108,2
Uzun	453,3	101,3	7,5	90,5	445,8	101,5
Sherobod	662,0	101,8	24,4	74,3	637,6	103,2
Sho'rchi	1093,5	102,0	51,0	131,9	1042,5	100,9

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **6,1 %** ga kamaydi va **1 043,8** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,4 %** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **11 308.8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **1,0 %** ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,6 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Muzrabot (98,5 %), Uzun (98,3 %), Qiziriq (97,9 %), Qumqo'rg'on (97,6 %), Boysun (97,2 %) Angor (96,9 %), va Sherobod (96,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (24,1 %), Termiz (15,7 %), Sariosiyo (5,5 %) va Denov (5,0 %) tumanlarida kuzatildi.



**SURXONDARYO VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON
BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**


2020- yil yanvar-dekabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 652,4** ming so'm (2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 0,1 % ga oshdi).

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Termiz shahri (14 625,3 ming so'm), Denov (7 706,2 ming so'm) va Sho'rchi (5 222,1 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	4 652,4	100,1
Termiz sh.	14 625,3	100,1
tumanlar:		
Oltinsoy	2 929,8	100,5
Angor	4 016,5	100,2
Bandixon	854,1	2,4 m
Boysun	4 407,4	99,8
Muzrabot	3 450,4	99,8
Denov	7 706,2	102,2
Jarqo'rg'on	2 918,3	99,7
Qumqo'rg'on	2 186,6	99,7
Qiziriq	4 434,9	98,2
Sariosiyo	2 365,6	99,1
Termiz	3 228,9	98,3
Uzun	2 637,1	99,8
Sherobod	3 408,7	100,1
Sho'rchi	5 222,1	100,4

Asosiy tarkib, foizda




Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1627,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **12,2** % ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **725,0** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **83,4** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **902,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **91,6** %) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **725,0** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **902,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	1627,3	87,8	725,0	83,4	902,3	91,6
Termiz sh.	90,8	87,0	90,8	87,0		
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	159,8	82,8	88,2	107,0	71,6	61,9
Angor	79,9	96,2	41,9	77,8	38,0	132,4
Bandixon	32,9		5,6		27,3	
Boysun	118,2	96,9	44,8	67,7	73,4	139,5
Muzrabot	186,8	82,1	46,6	50,9	140,2	108,4
Denov	174,0	78,7	125,2	86,7	48,8	66,1
Jarqo'rg'on	96,0	69,2	50,2	70,2	45,8	68,3
Qumqo'rg'on	137,8	88,4	74,6	147,7	63,2	56,0
Qiziriq	105,8	81,5	20,6	36,8	85,2	121,8
Sariosiyo	194,6	97,1	31,5	68,0	163,1	124,2
Termiz	39,1	94,5	2,2	174,8	36,9	88,9
Uzun	48,9	71,6	27,7	118,7	21,2	45,1
Sherobod	36,4	81,5	29,8	91,6	6,6	17,1
Sho'rchi	92,7	82,9	37,5	75,1	55,2	88,1

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI**



10,7
mlrd. so'm

Tuzlamalar



299,1
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



27,9
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**

(yong'oq, bodom, pista va boshqalarni qo'shgan holda)

100,9
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



28,4
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

39,9
mlrd. so'm



Tuxum

130,7
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

23,2
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **725,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**299,1** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

8,3
mlrd. so'm



Ziravorlar

48,7
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

7,2
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **902,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **666,9** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **211,5** mlrd. so'mni, otlar **18,0** mlrd. so'mni, parrandalar **5,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasida ulushi 1,7 % ni tashkil etib, 210,1 mlrd. so‘mga yetdi va 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 12,3 % ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining 90,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda




	Jami, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	210,1	87,7	21,1	82,0	189,0	90,6
Termiz sh.	75,2	98,4	0,2	51,3	75,0	95,6
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	4,4	80,8	-	-	4,4	88,1
Angor	8,7	85,7	-	-	8,7	94,3
Bandixon	0,5	82,1	-	-	0,5	-
Boysun	5,1	93,4	-	-	5,1	92,2
Muzrabot	4,3	76,7	-	-	4,3	87,6
Denov	38,2	93,1	-	-	38,2	91,6
Jarqo‘rg‘on	5,8	73,3	-	-	5,8	85,8
Qumqo‘rg‘on	5,7	84	-	-	5,7	94,0
Qiziriq	4,1	78,3	-	-	4,1	80,4
Sariosiyo	24,8	90,7	20,1	96,4	4,7	75,3
Termiz	9,2	58,1	0,8	29,2	8,4	67,3
Uzun	4,8	82,7	-	-	4,8	94,9
Sherobod	10,4	80,8	-	-	10,4	87,8
Sho‘rchi	8,9	81,6	-	-	8,9	87,0

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2019- yil
yanvar- dekabr

2020- yil
yanvar- dekabr




2019- yil yanvar-dekabr oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 0,3 % dan 0,1 % ga kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi 210,1 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 87,7 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha 209,9 mlrd. so'm nodavlat mulkka (99,9 %) hamda 0,2 mlrd. so'm (0,1 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi.


	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	210 063,8	100,0	209 885,3	99,9	178,5	0,1
Termiz sh.	75 236,1	35,8	75 057,6	99,8	178,5	0,2
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	4 362,2	2,1	4 362,2	100,0	-	-
Angor	8 657,8	4,1	8 657,8	100,0	-	-
Bandixon	472,0	0,2	472,0	100,0	-	-
Boysun	5 097,9	2,4	5 097,9	100,0	-	-
Muzrabot	4 252,8	2,0	4 252,8	100,0	-	-
Denov	38 171,8	18,2	38 171,8	100,0	-	-
Jarqo'rg'on	5 814,1	2,8	5 814,1	100,0	-	-
Qumqo'rg'on	5 753,6	2,7	5 753,6	100,0	-	-
Qiziriq	4 112,2	2,0	4 112,2	100,0	-	-
Sariosiyo	24 756,3	11,8	24 756,3	100,0	-	-
Termiz	9 237,2	4,4	9 237,2	100,0	-	-
Uzun	4 814,6	2,3	4 814,6	100,0	-	-
Sherobod	10 373,2	4,9	10 373,2	100,0	-	-
Sho'rchi	8 952,0	4,3	8 952,0	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 979,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **3,9 %** ga ko'paydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **1 110,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **118,7 %**), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 869,0** mlrd. so'mni (**3,2 %** ga kamayish), tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonona

Kichik korxonona

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Eng yuqori ulushga ega hududlar



**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Bandixon (398,8 %) va Qumqo'rg'on (151,6 %) , Denov tumanlarida (116,7 %) kuzatildi.


Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	2979,6	103,9	1110,6	118,7	1869,0	96,8
Termiz sh. tumanlar:						
Oltinsoy	76,7	81,1	43,7	82,2	33,0	79,7
Angor	80,2	71,6	7,6	43,8	72,6	76,6
Bandixon	36,8	4,0 m	6,7	-	30,1	326,7
Boysun	23,4	87,0	1,5	108,1	21,9	85,8
Muzrabot	80,7	83,7	69,8	82,0	10,9	95,8
Denov	764,1	116,7	203,9	173,7	560,2	104,3
Jarqo'rg'on	293,8	89,9	168,3	100,5	125,5	78,7
Qumqo'rg'on	175,1	151,6	139,5	2,0 m	35,6	76,7
Qiziriq	58,5	69,8	20,1	44,8	38,4	98,7
Sariosiyo	129,3	61,6	5,6	11,6	123,7	76,4
Termiz	185,2	98,0	5,7	39,3	179,5	102,8
Uzun	30,6	80,3	5,5	62,9	25,1	85,5
Sherobod	106,8	113,5	53,2	127,1	53,6	102,6
Sho'rchi	81,7	111,9	37,2	187,6	44,5	83,6



YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, **1 869,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 3,2 % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 62,7 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Termiz (96,9 %), Sariosiyo (95,7 %) , Boysun (93,6 %), Angor (90,6 %) , Uzun (81,9 %), tumanlarida yuqori bo'lgan.

